

Tijorat banklari depozit siyosatining banklar resurs salohiyatini oshirishdagi roli

*Toshkent Moliya instituti magistranti
Toshpo 'latova Farangiz Jahongir qizi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tijorat banklari depozit siyosatining shakllanishi, uning nazariy asoslari, banklarda resursslarni shakllantirishda depozit siyosatining o'rni hamda depozit siyosati samaradorligini oshirishning resurs bazasini mustahkamlashdagi ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *depozit siyosati, omonat, muddatli depozit, bank resursslari, jamg 'arma depozit.*

Abstract: *This article describes issues such as the formation of the deposit policy of commercial banks, its theoretical foundations, the role of the deposit policy in the formation of resources in banks.*

Key words: *deposit policy, deposit, term deposit, bank resources, savings deposit.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены такие вопросы, как формирование депозитной политики коммерческих банков, ее теоретические основы, рол депозитной политики в формировании ресурсов банков.*

Ключевые слова: *депозитная политика, вклад, срочный депозит, ресурсы банка, пополняемые вклады.*

Resurs - fransuzcha «ressource»¹so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar

¹ Азрилияна А. Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики, 1999. - 852 с.

manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» so'zi turli xil ma'nolarda, ya'ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda tez-tez uchrab turadi. Shundan iqtisodiy resurslarni jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarining asosiy elementlaridan biri deb hisoblash mumkin. Undan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar bo'lib, bu resurslar iqtisodiyotnin rivojlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablag'larini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablag'lari, chek- depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblandi. Bank resurslari tijorat banki faoliyatini keng olib borishga asos bo'lib, bankka ma'lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega bo'lgan zahira va imkoniyatdir. Tijorat banklari o'zining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga o'z faoliyatining startegik yo'naliшlarini belgilaganda shu zaxira va imkoniyatlarning ko'lамини keng ko'rib chiqishi va resurslarni o'z faoliyat yo'naliшlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim. Tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va moliyaviy faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'lik bo'lgan operatsiyalar banklarning- **passiv operatsiyalar** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv schyotidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi.

Tijorat banklari tomonidan passiv operatsiyalarni amalga oshirishdan **maqsad:**

- bank faoliyatini resurslar bilan ta'minlash;
- iqtisodiyotga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mablag'lar manbalarini shakllantirish;
- jalb qilingan mablag'larga bank foizlarini to'lash yo'li bilan aholi va yuridik shaxslar daromadlarini oshirish;
- o'z kapitali hajmini oshirib borish;
- bank operatsiyalarini riskdan himoya qilish uchun rezerv fondlarni tashkil qilish.

Shu bois, tijorat banklari depozit siyosati ularning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, banklarning aktiv operatsiyalari natijas ida shakllantirilayotgan daromadlari hajmi ushbu siyosatning samaradorligiga bevosita bog'liq.

“Depozit siyosati” so'zini alohida olib qaraydigan bo'lsak, ushbu so'z tijorat banklarining muddatli moliyaviy resurslarni boshqarish ma'nosini anglatmaydi. “Depozit siyosati” so'zini, albatta “tijorat banklari depozit siyosati” tarzida qo'llansagina, u tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar doirasida tegishli

chora-tadbirlar ishlab chiqish va boshqarish ma'nosini anglatadi.

Depozitlar banklar tomonidan amalga oshiriladigan depozit siyosatining asosiy o'zagini tashkil etadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha iqtisodchi olimlar bank depozitining iqtisodiy

Modern education and development

mohiyatiga turlicha yondashadilar. Masalan, Amerikalik iqtisodchi olim E. M. Rode “depozit – bank mijozlarining jamg‘armadan tashqari barcha muddatli va muddatsiz quyilmalaridir” degan iqtisodiy talqinni ilgari suradi.²

Tijorat banklarining deposit turlari:³



Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar – bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtida talab qilib olinadigan mablag‘lardir. Ularga hisob-kitob, byudjet hisob–kitoblarini amalga oshirishi yoki mablag‘lardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq hisob- varaqalardagi mablag‘larni, boshqa banklarning vakillik hisobvarag‘idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob- kitoblar uchun mo‘jallangan. Bu hisobvaraqdagi mablag‘lar harakati naqd pul, pul o‘tkazish, boshqa hisob- kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bu depozit turining asosiy kamchiligi – ular bo‘yicha juda kam miqdorda foizlarning to‘lanishi yoki umuman to‘lanmasligidir.

Muddatli depozitlar – bu banklar tomonidan ma’lum muddatga jalgilinadigan depozitlardir. Bu turdagи depozitlar qo‘yilgan muddatda o‘zgarmas bo‘lishi lozim va ular joriy to‘lovlar uchun ishlatilmaydi. Muddatli qo‘yilmalar mablag‘larni shartnomaga bo‘yicha muddat va shartlarda to‘liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo‘yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo‘yilma bo‘yicha to‘lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo‘yuvchi tomonidan bajarilishiga bog‘liqdir.


² Роде Э.М.Банки, биржи, валюты современного капитализма. М.: «Дело ЛТД», 1995. -С. 148.

³ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Modern education and development

Jamg‘arma depozitlari aholi pul jamg‘armalarining to‘planishi uchun xizmat qiladi. Jamg‘arma depozitlarga pul mablag‘larini jamg‘arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo‘yilmalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatlari – saqlashning rag‘batlantirilishi va yuqoridaromadlilik darajasi, ma’lum davr ichida jamg‘arila borishi kabilarhisoblanadi. O‘zimizning amaliyotda jamg‘arma depozitlari deganda aholi mablag‘larini muddatli qo‘yilmalar yoki talab qilgungacha hisobvaraqlarida jamg‘arilishi bilan bog‘liq har qanday operatsiyalar tushuniladi.

Tijorat banklari tomonidan aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini bank depozitlariga jalg qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan aholi va yuridik shaxslardan jalg qilingan omonatlar miqdori va dinamikasi (trln.so‘m., yil boshiga)⁴

O‘z navbatida, 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, tijorat banklarining jalg qilgan depozitlari tarkibida aholi omonatlarining miqdori so‘nggi besh yilda qariyb 2,5 barobarga oshgan. Yuridik shaxslarning depozitlari ham xuddi shunday miqdorda ko‘paygan. Biroq so‘nggi 5 yilda banklar tomonidan jalg qilinayotgan depozitlar tarkibida aholi omonatlarining ulushi 21

⁴ www.cbu.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

foizdan31 foizgacha oshgan. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ancha sezilarli darajada yuqoridir.

Ta'kidlash joizki, banklarning depozit bazasi mustahkamligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida bank depozitlari tarkibidagi barqaror resurslarning ulushi yuqori ekanligidir.

Tijorat banklari depozit siyosatining iqtisodiy mohiyati moliyalashtirishning asosiy manbayi bo'lgan depozitlarni jalg qilish va boshqarishga qaratilgan strategik qarorlar hamda chora-tadbirlarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Tijorat banklari faoliyatida depozit siyosatining bank resurslarini shakllantirishdagi o'rni nihoyatda katta bo'lib, bir qancha asosiy jihatlarni qamrab oladi:

➤ Moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida: Tijorat banklarining kredit va investitsion faoliyatini moliyalashtirish darajasi jismoniy shaxslar, korxonalar va boshqa tashkilotlardan jalg qilingan depozitlarga bog'liq. Depozit siyosati raqobatbardosh foiz stavkalari, moslashuvchan shartlar va har xil turdag'i depozit turlarini taklif qilish orqali mijozlarni jalg qilish va saqlab turish choralarini o'z ichiga oladi

➤ Likvidlikni boshqarish: Depozitlar banklar uchun barqaror va ishonchli moliyalashtirish manbasini ta'minlaydi, ulardan kreditlar berish va investitsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanadilar. Depozitlarning jalg qilinishi va mijoo'lar tomonidan qaytarib olinishi banklarda yetarli darajada likvidlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Depozit siyosati likvidlik talablarini belgilash va tegishli likvidlik koeffitsiyentlarini saqlashni o'z ichiga oladi.

➤ Mijozlar bilan o'zaro aloqalar va ishonch: Depozitlar mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish va ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar mijozlarga yo'naltirilgan depozit mahsulotlari va xizmatlarini taklif qilishga, mijozlarga individual yondashishga (VIP mijozlar), depozit hisobvaraqlarining xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashga intiladi. Kuchli depozit siyosati mijozlarning bank xizmatlaridan

qoniqishi va sidiqligini oshiradi, bu esa depozitlarni barqarorligini ta'minlash va samarali joylashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Demak, depozit siyosatining iqtisodiy mohiyati va uning tijorat banklari faoliyatidagi o'rni tijorat banklarining barqaror moliyalashtirilishini, rentabelligini, likvidligini va risklarni boshqarishni ta'minlash uchun depozitlarni strategik boshqarish bilan bog'liq. To'g'ri amalga oshirilgan depozit siyosati banklarga omonatlarni jalg qilish va saqlashga, mustahkam moliyaviy bazani ta'minlashga va ularning umumiy bank operatsiyalarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 1859-son Qarori, 2008-yil 24-sentabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son.
2. Sh.Z.Abdullayeva. Bank ishi. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2017.–99 b.
3. Роде Э.М.Банки, биржи, валюты современного капитализма. М.: «Дело ЛТД», 1995. -С. 148.
4. www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti)
5. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti)
6. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)